

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-9/4
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

МУҲДАРИЖА

FILOLOGIYA FANLARI

Abduraxmanova N. Farmatsevtika nutqi janrida dori vositalarini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma: leksik-terminologik va kompozitsion-kommunikativ tahlil	5
Akhmedova M.T. Difficulties in translating phraseological units in english and uzbek	7
Asronova M.M. Siyosiy diskursning morfologik xususiyatlari	9
Ataboev A.Dj. Til va ong o'rtasidagi munosabatlarning ontologik jihatlar	12
Ataboev A.Dj. Til va ongning o'zaro munosabati va bir-biriga bog'liqligi xususida	16
Avezova D.S. Taxalluslarning semantik xususiyati	20
Aynazarova G.B. Qoraqalpoq va o'zbek tillaridagi shodlik so'zlarini qiyosiy tahlil qilish	25
Azatova G. Xorazm xalq aytimlarining shakllanishi va rivojlanishi xususida	28
Azimova D. Formation of phonetic/phonological units based on strong-weakness of sounds in English and Uzbek languages	31
Baxodirova Sh.B. Abdulla Qodiriyning kichik asarlarida lakunar birliklar	34
Boltaboyev F.Sh. Leksik interferensiya tushunchasi, uning mohiyati va kelib chiqishi	39
Bozorova M.A. Genrix Geynening "Germaniya. Qish ertagi" asari yoki ijodkorning xalq oldidagi mas'uliyati haqida	41
Chilmurzayeva M.A. O'zbek va ingliz adabiyoti taraqqiyotida tarixiy roman janri rivojlanish tendentsiyalari	44
Davirova V.Q. Venger olimi Herman Vamberi va o'zbek folklori	46
Ergashev M.R. Terminning ko'p tomonlama tabiati xususida	51
G'aniyeva T. Ingliz va o'zbek tillarida animatsion mediadiskursda frazeologizmlarning qo'llanilishi va ularning lingvopragmatik jihatlar	53
Hamroyeva N.N. Nutqiy janr va nutqiy akt – nutqiy muloqotning birligi sifatida	58
Hazratqulova E.I., Botirova Sh.I. Zamonaviy tilshunoslikda psixolingvistikaning o'rganilishi	61
Iskandarova Sh., Maxmudova N. O'zbek va ingliz tillaridagi ornitonimlar paradigmasi haqida	65
Jurayeva M.A. Ingliz va o'zbek tillarida reklama tavsifi, uning xususiyatlari	67
Karimova I.B. Tilshunoslikda raqamlarning paydo bo'lishi va bosqichma bosqich rivojlanishi	70
Koziva I.K. Learn nicknames	75
Kuchimova G. Agglyutinativ tillar tizimida tilning morfemika sathiga doir asosiy birliklarning ahamiyati, qo'llanilishi va vazifalari	77
Mamadaliyeva X.M. Dunyo tilshunosligida lingvistik maydon konsepsiyalari	80
Matmurodov X. Ranglarni idrok etish psixologiyasi	83
Maxmudov R., Atajonova A. Badiiy matnni lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilish tamoyillari	86
Melikova U.B. Koreys tilida sifatlarning yasali	90
Nazarova D.I. Yangi davr she'riyati mumtoz janrlarida shaxs kechinmalarining poetik talqini	92
Obobakirova V.V. The origin of nicknames and their distinctive features in dialects	95
Pirmatova O.S. Sholichilik terminlarining birikma tarzida yasali	98
Qambarova L. Sensor afaziyaning rus tilshunosligida o'rganilishi	101
Qudratova M.Sh. Asqar Mahkam she'riyatida leksik qatlam va tasviriy-ifodaviy vositalar	103
Raxmanova D.A. Nemis xalq ertaklarining o'zbek tiliga tarjima variantlarining shakllanishi va tarjima masalalari	106
Raxmatullayev Z.H. O'zbek va ingliz adabiyotida o'lim mavzusining yoritilishida yozuvchi ijodiy konsepsiyasi	109
Saidova R.B. "Majolis un-nafois" tazkirasida she'r va shoirlik xususida mulohazalar	112

nutqning ijtimoiy variativligidir. U ikkita yo'nalishda mavjud: o'zaro bog'liqlikdagi – stratifikasiyalangan va vaziyatning o'zgaruvchanligi.

Stratifikasion variativlik jamiyatning ijtimoiy strukturalari bilan bevosita chambarchas bog'liqlik bo'lgan, o'zining ifodasini turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlarining namoyondalari orasida bayon qiladigan, til va nutqiy farqlanishlarda kuzatiladigan hodisadir. Stratifikasion variativlik tushunchasining mazmuniga: shaxsning doimiy tavsiflari, jumladan, ijtimoiy guruhga sinfiy mansubligi, kasbi, ta'lim darajasi, jinsi, yoshi kabi ijtimoiy va sosiodemografik xususiyatlar kiradi. U "maqom" ("status") atamasiga teng keladi.

Jamiyatning turli tuzilmalari bilan bog'liq ijtimoiy qatlamlar a'zolarining til va nutqiy farqlari nutqning ijtimoiy stratifikasiyalangan variativligidir. Bu tushunchaga insonning ijtimoiy qirralari, masalan, kasbi, jinsi, darajasi kabilar kiradi. Kommunikasiya harakatining ishtirokchilari muloqot jarayoniga: vaziyat tavsifiga, suhbatdoshning xarakteriga (jinsi, yoshi, ijtimoiy maqomi, qarindoshligi, tanishligi) va suhbatdoshlarning ijtimoiy ierarxiya (quyi, teng, yuqori) holatiga mos ravishda muayyan leksik vositalarni qo'llaydi. Shaxslararo axloqiy (etik) munosabatlar etiketga asoslangan nutq muloqotining yetakchi mezon bo'lgan xushmuomalalik prinsipi asosida quriladi. Xushmuomalalik insonni lisoniy va nolisoniy xulq-atvoriga ta'rif beruvchi belgi yoki xususiyat sifatida sharhlanadi. Shunday qilib, me'yor va xushmuomalalik orasida keskin chegaralar mavjud emas. Bir shaklning o'zi ma'lum bir vaziyat uchun me'yoriy, xushmuomalalik sifatida tavsiflanishi va boshqa bir vaziyat turi uchun me'yor chegaralaridan chiqqan deb baholanishi ham mumkin. Boshqacha qilib aytganda, xushmuomala/noxush muomala shaklida izohlanayotgan ifodaning u yoki bu shakli kommunikativ vaziyat o'lchamlari (parametrlari) bilan shartlanadi.

Xulosa. Nutq akti bir vaqtning o'zida sodir bo'layotgan muloqot jarayonini gapirish va eshitish orqali idrok etish, tushunishni o'z ichiga olgan matn hosil qilishning ikki tomonlama jarayonidir. Yozma muloqotda nutq akti, mos ravishda, yozilayotgan narsani yozish va o'qishni (vizual idrok etish va tushunishni) qamrab oladi va muloqot ishtirokchilari vaqt va makonda bir-biridan uzoqda bo'lishi mumkin. Nutq akti nutq faoliyatining ko'rinishidir. Nutqiy janr esa so'zlashuvning ma'lum darajadagi barqaror turi bo'lib, nutqiy xatti-harakatlarining stereotipi hisoblanadi. Janriy shakl — bu odatiy muallif g'oyasini, uning kommunikativ maqsadini, intensiyani amalga oshirish usulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Из архива записей к работе "Проблема речевых жанров". Проблема текста // Собр. соч.: в 7 т. Т. 5. – М., 1996. – С. 159-206.
2. Nizomiddinova K. N. et al. PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE TYPES OF FATIK COMMUNICATION AND ABOUT COMPLIMENTS //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Т. 14. – №. 3.
3. Nurmonova S. NUTQIY JANRLAR MASALASINING O'RGANILISHI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 141-144.
4. Розенталь Д.Э. Словарь-справочник лингвистических терминов. Изд.2-е испр. и доп. / Д.Э.Розенталь, Теленкова М.А.. – М.: Просвещение, 1976. – С. 543.
5. Рытникова Я.Т. Семейная беседа как жанр повседневного речевого общения // Жанры речи. – Саратов, 1997. – С. 181.
6. Сусов И.П. Лингвистическая прагматика. – Винница: Нова Книга, 2009. – 272 с.
7. Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. – М.: Лабиринт, 2004. – 320 с.
8. Toirova G., Hamroeva N. The importance of linguistic models in the development of language bases //Sciences of Europe. – 2020. – №. 59-2 (59). – С. 57-63.
9. Введенская Л.А. Русский язык и культура речи. – Ростов н/Д: Феникс, 2001. – С. 544.

UO'K 81'1.001, 81-13

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA PSIXOLINGVISTIKANING O'RGANILISHI

E.I.Hazratqulova, tayanch doktorant, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq
Sh.I.Botirova, DSc, prof., Alfraganus universitet, Toshkent

Annotatsiya. Psixolingvistika tilni tushunish va hosil qilish uchun miyada sodir bo'ladigan jarayonlarning tabiati bilan shug'ullanadi va turli xil psixolingvistlarning nazariyalarini o'rganadi.

Odamlar tilni o'rganish jarayoni va tilni bilishni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan bosqichlarni tilni o'zlashtirish deb nomlanadi. Ushbu muhim jarayon biologik, kognitiv, psixologik va ekologik omillarning murakkab kombinatsiyasi bilan belgilanib, fanda psixolingvistika deb yuritiladi va u so'ngi yillarda dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi va haligacha qator ilmiy ishlarning negizi bo'lib qolmoqda

Kalit so'zlar: psixolingvistika, psixolingvistik ko'nikma, empirik ildiz, lingvistik tuzilma, nutq faoliyatlari, bixeviorizm, innatistik, kognitiv nazariyalar

Аннотация. Психоллингвистика занимается процессами, которые происходят в мозгу при понимании и воспроизведении языка, и изучает теории различных психоллингвистов. Процесс изучения языка и шаги, которые люди предпринимают для развития языковых навыков, называются овладением языком. Этот важный процесс определяется сложным сочетанием биологических, когнитивных, психологических и средовых факторов, в науке он называется психоллингвистикой, стал одной из горячих тем последних лет и до сих пор лежит в основе многих научных работ.

Ключевые слова: психоллингвистика, психоллингвистические умения, эмпирические корни, языковая структура, речевая деятельность, бихевиоризм, врожденная, когнитивная теории.

Abstract. Psycholinguistics deals with the processes that occur in the brain to understand and produce language and studies the theories of various psycholinguists. The process of language learning and the steps people take to develop language skills is called language acquisition. This important process is determined by a complex combination of biological, cognitive, psychological, and environmental factors, and it is called psycholinguistics in science, and it has become one of the hot topics in recent years and is still the basis of many scientific works.

Key words: psycholinguistics, psycholinguistic skills, empirical roots, linguistic structure, speech activities, behaviorism, innate, cognitive theories

Insoniyat ruhiy-hayotiy faoliyati ma'lum darajada atrof muhitga fiziologik energiya xususiyatlari bilan, psixologik darajada esa ong orqali o'ziga xos idrok etishni ta'minlaydigan psixologik filtrlar tizimi bilan ajralib turadi. Taniqli sovet psixologi N. D. Levitovning fikriga ko'ra insonning ruhiy holatlari bilan tananing funksional holatlari, shuningdek nutq shakllari o'rtasida chegara mavjud va u insonning ruhiy holatlari, tananing funksional holatlaridan farqli o'laroq, ma'lum darajada shaxsning munosabatini real hayotga aloqasini ko'rsatib bergan.

Psixologik jarayonlar va shaxs xususiyatlari bilan bir qatorda har bir shaxsning kundalik hayotdagi holatlari psixologiya fani tomonidan o'rganilgan va u o'z navbatida psixolingvistik hodisalarni aks ettirgan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda olimlar shaxsning to'liq idrok ettish qobiliyati bo'yicha qator muammolarga duch kelishmoqda. Chunki, olimlarning fikricha, psixolog va lingvistlarda yagona bir xil nuqtai nazar mavjud emasligi va shaxsning holati tez-tez almashinuvi sabab bo'ladi va psixolingvistikaning insonga ta'siri ikki jihatdan ko'rib chiqilishi mumkin. Bular psixologiya va tilshunoslik. Ular bir vaqtning o'zida insonning munosabatlari, xulq-atvor ehtiyojlari, faoliyat maqsadlari va atrof-muhit va vaziyatga moslashishi tufayli shaxs dinamikasining bo'laklarini ko'rsatib beradi. Bundan kelib chiqadiki, insonning hayoti va kunlik atrofida qilishi psixolingvistika bilan chambarchas bog'liqdir.

Psixolingvistika tilshunoslik va psixologiya sohalarining fanlararo o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. "Psixolingvistika" atamasi esa yunon tilidan olingan bo'lib "psyche"—"qalb, jon, ruh", lotin tilidan "lingua"—"til" degan ma'nolarni anglatadi, odamlarning fikrlashi, hissiyotlari, xulq-atvori, shuningdek til va uning namoyon bo'lishini o'rganadi. O'z-o'zidan psixologiya inson psixikasi yoki ongini o'rganishni tashkil qiladi, tilshunoslik esa tillar haqidagi fandir. Binobarin, psixolingvistika odamlarning tilni qanday egallashi, yaratishi va qabul qilishini bilish va tushunishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga u tilning ham jismoniy, ham kognitiv harakat ekanligini aniqlab beradi. Psixolingvistika til psixologiyasi bilan bir qatorda lingvistik psixologiyani ham o'z ichiga oladi, ya'ni odamlar tilni qanday tushunish va qayta javob qaytarishni, yangi ma'lumotni ong ostida ishlab chiqarishni o'rganadi. Psixolingvistikaning asoslaridan biri nutq tabiatan ham biologik, ham

psixologik faoliyat hisoblanadi. Shuningdek, u tilni qayta ishlash mexanizmlari: o'qish va yozish, gapirish va eshitish, fikrlash tizimlari bilan birga ishlaydi.

Psixolingvistika eng yosh fanlarning biri sanalib, uning nazriy asoslari XIX asr oxiridan oldin "Til psixologiyasi" fani sifatida ishlab chiqila boshlangan, ya'ni 1936-yilda boshlangan Yakob Kantor, o'sha paytda taniqli psixolog, "psixolingvistik" atamasini o'z kitobida tavsif sifatida ishlatgan. Yakob Robert Kantor "psixolingvistikaning asoschisi" deb tanilgan. Edvard Torndik va Frederik Bartlettning ishi esa psixolingvistika fani deb nomlanadigan fanga asos solgan Ammo ko'p olimlarning fikriga qaraganda, "psixolingvistika" atamasi faqat 1946-yilda Kantorning shogirdi Nikolas Pronko tomonidan "Psixolingvistika: sharh" nomli maqola chop etilganidan so'ng keng qo'llanila boshlangan. Psixolingvistika birinchi marta "izchil bo'lishi mumkin bo'lgan" fanlararo fan haqida gapirish uchun ishlatilgan. Psixolingvistikaning akademik fan sifatida paydo bo'lishi 1951-yilda Kornell universitetida o'tkazilgan nufuzli seminarga borib taqaladi. Osgud va Sebeok 1954-yilda psixolingvistikani "kodlash va dekodlash jarayonlariga, chunki ular xabarlar holatini kommunikatorlar holatiga bog'liq" deb ta'riflagan. Charlz Osgud va Sebeokning ishini mulliflar tilni o'rganishga qaratilgan uchta asosiy yondashuvni- tilshunoslik, o'rganish nazariyasi, va axborot nazariyasi qisqacha muhokama qilganlar:[4]

Tarixiy faktlarga asoslanadigan bo'lsak Amerika psixolingvistikasi 1953-yil yoz oylarida Blumington (AQSH) shahrida yuzaga kelganva aynan shu yilda amerikalik taniqli psixologlar Dj. Keroll va Ch. Osgudlar, shuningdek, Blumingtondagi mashhur tilshunos va etnograf T. Shabek tashabbusi bilan universitetlararo tadqiqot seminari yig'ilishi o'tkazilgan. Yuqorida ko'rsatilganlardan olimlaran tashqari, tilshunoslar - Dj. Grinberg, F. Lounsbern, E. Linneberg, E. Ulenbek, Dj. Lots, psixologlar- Dj. Djenkins, G. Ferbenks, K. Vilsonlar kabi tilshunos va psixolog olimlar faol ishtirok ettilar. Ikki oylik suhbatlashishning samarasi o'laroq, bahs-munozara davomida ishlab chiqilgan va seminarining barcha qatnashchilari tomonidan eksperimental tadqiqotlar sohasidagi asosiy amaliy masalalar mana shu qoidalar munosabati bilan yuzaga kelgan nutq hodisalari nazariy qoidalar boshlang'ich sifatida qisqa shaklda bayon etilgan kitob "Psycholinguistics. A survey of theory and research problems" Ch. Osgud va T. A. Sebeok tomonidan Baltimore nashryotida 1954 yilda dunyoga kelgan. Ushbu kitob bugungi kunda ilova tarzida ikki jurnalda nashr qilingan: psixologik ("Journal of Abnormal and Social Psychology") va lingvistik ("International Journal of American Linguistics") va u fototipik holatda qayta nashr qilindi, hamda unga E. R. Dayboldning 1954-1964-yillarda psixolingvistik tadqiqotlari va Dj. Millerning "Psixolingvistika haqida" maqolasi qo'shimcha qilindi. Nutq xulqini kompleks tadqiq qilish bo'yicha chaqiriqlar psixolog va tilshunoslar tomonidan hali 40-yillarda ilmiy matbuot sahifalarida tarqalgan edi.[5] Shu yillarda, qolaversa, turli tarzda qo'llaniladigan "psixolingvistika" termini paydo bo'ldi. Ushbu termin N. H. Pronkoning "Language and Psycholinguistics", "Psychological Bulletin" dagi maqolasida birinchi marta to'g'ri qo'llanildi. Nutq psixologiyasi bo'yicha jahonda yirik mutaxassislardan biri sanalgan Djorj Millerning mashhur kitobi "Language and communication", N. Y. Toronto tomonidan Londonda 1951-yilda nashrdan chiqqan va oradan 5 yil o'tib 1956-yilda uning tarjimai Parijda ommaga tarqatiladi, biroq unda "psixolingvistika" termini biron marta esga olinmaydi, ammo 1954-yildayoq muallif Dj. Miller 1954-yil "G. Lindzey. Handbook of social psychology, volume. II. Cambridge" to'plamining 693-708 betlarida "Psycholinguistics" nomli maqolasini nashr qiladi. Sarlavhasi (nomi)da ushbu termin uchraydigan yana bir kitob A. A. Robak tomonidan yozilgan "Destiny and motivation in language. Studies in psycholinguistics and glossodynamics" Cambridge nashryotida 1954-yilda dunyoga keldi. Va nihoyat, psixolingvistikani yagona fan sifatida yaratish g'oyasi birinchi marta 1954-yilda tug'ildi.[3]

Psixolingvistika mustaqil tarkibiy fan sifatida Rossiyada Yevropa davlatlaridan farqli ravishda bir oz vaqt kech boshlandi. XX asr boshlarida rus psixolingvistikaning paydo bo'lishi va shu asrning ikkinchi yarmida shakllanishi haqida mashhur tilshunos V. Levelt tomonidan jahon psixolingvistikasi tarixi kontekstida sharh taqdim etiladi.[2] Ammo Leveltning monografiyasida o'sha davrlarda yashab, ilm ustida mehnat qilgan A. R. Luriy, L. S. Vigotskiy yoki A. N. Leontiyev va boshqalar psixolingvist emas, psixologiya va neyropsixologiya ustida ishlaganlar deb ma'lumot berilgan va keyinchalik ularning ismini rus psixolingvistikasining asoschilari deb bergan. Hatto,

psixolingvistikaga uzviy bog'liq bo'lgan 1862 -yilda nashr etilgan rus tilshunosi A. A. Potebnyaning "Мысль и язык" kitobi haqida ummuman so'z yuritilmagan

Shuni ham ta'kidlash joizki, Rossiyada asosiy e'tibor ikkita yetakchi rus psixolingvistik maktablari- L. V. Shcherba asarlaridan kelib chiqqan Sankt-Peterburg maktabi va A. A. Leontyev nomi bilan uzviy bog'liq bo'lgan Moskva maktabining tavsifi bilan chambarchas bog'liq.[6]

Psixolingvistikaning tarixida keyinchalik Levelt tomonidan tilshunoslik uchun berilgan ma'lumotlarda psixolingvistika to'rtta asosiy empirik ildizga ega ekanligi ko'rsatilgan.[8]

Birinchi empirik ildizning asosi tilning kelib chiqishini izlash natijasida paydo bo'lgan va bu hind-evropa tillari oilasining kashf etilishi bilan bog'liq. XVIII asr oxirida ma'rifatparvarlikdan romantizmga o'tish va tarixiy-qiyosiy tilshunoslikning paydo bo'lishi til va nutqning tabiiy kelib chiqishi haqidagi g'oyani keltirib chiqardi. Romantizm tabiat va ongni tekshirish uchun naturalistik va yaxlit nuqtai nazarni qabul qildi. Ular tilning paydo bo'lishi ni ilohiy sovg'a yoki qasddan tuzilgan ijtimoiy shartnoma emas, balki tabiiy sabablar bilan bog'lashgan. Bundan tashqari, yangi kashf etilgan tillar, ya'ni osiyo, afrika va, xususan, amerikalik hind tillari taqqoslashga bo'lgan qiziqishni oshirdi.

Tilning kelib chiqishi haqida yozganlarning eng taniqli vakillari deb faqat Iogann Gotfrid Xerder va Ditrix Tidemann 1772 yilda yozgan bitiklari bilan emas balki, o'sha davrda Jan-Jak Russo, Jeyms Bernett, Lord Monbodd va boshqalar ham tilning kelib chiqishi haqida yozgan qiziqishlari va birinchi bo'lib gapiruvchi mashinani yaratgan Volfgang fon Kempelen ham mashhurlikka erishgan. Miyadagi tilni o'rganish XVIII asrning so'nggi o'n yilliklarida paydo bo'lgan ikkinchi ildiz hisoblangan. Bu borada taniqli Frans Gall "til funktsiyasi miyaning oldingi qismlarida lokalizatsiya qilingan" deb fikr yuritgan edi.[8] Bir qancha vaqtdan so'ng, Levelt, ta'riflaganidek, psixolingvistika XIX asrning ikkinchi yarmida, asosan, Broka va Vernik kashfiyotlaridan keyin rivojlangan fanga aylandi. Uchinchi ildiz bo'lgan bolalarning tilni qanday o'zlashtirishini empirik o'rganishga o'tadigan bo'lsak, bolalar tilini o'rganish 1762- yilda Russoning "Emile" asarining nashr etilishi bilan turtki bo'ldi, unda u bolalar tili bo'yicha o'z kuzatuvlari va tajribalarini eslatib o'tdi va til o'qituvchilarga tilni diqqat bilan kuzatish kerak ekanligi haqida muhim tafsilotlar berib o'tdi. Keyinchalik, 1877-yilda Darvinning biografik rivojlanish yozuvlari nashr etilgandan so'ng, u tizimli empirik tadqiqot mavzusiga aylandi. Nihoyat, to'rtinchi ildiz oddiy kattalar tilini qayta ishlashga eksperimental va nutq xatosi yondashuvlari edi. 1865-yilda eksperimental psixolingvistikada yangi tadqiqot paradigmasi "aqliy xronometriya", ya'ni "aqliy ishlov berish tezligi" ni kashf etgan va manipulyatsiya qilgan Fransis Donders tomonidan "reaksiya vaqtini o'lchash" deb nomlangan. Birinchi psixologik laboratoriyaga esa 1879-yilda Vilgelm Vundt Germaniyaning Leypsig shahrida asos soldi va bu paradigmani o'zining ishlarida faol qo'llab ko'zga ko'rinarli natijalarga erishdi.[9]

Xuddi boshqa MDH davlatlarida kuzalitayotganidek, O'zbekistonda ham psixolingvistika sohasida bir qancha ishlar bajarilgan bo'lsada, haqiqiy ma'nodagi tadqiqotlar endigina boshlanmoqda.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, psixolingvistika paydo bo'lgandan so'ng yillar davomida bir qator muammoli psixolingvistik nazariyalar insoniyat tilni qanday egallashini tushuntirishga harakat qiladi. Psixolingvistik bixeviorizm, innatistik, kognitiv nazariyalar dunyoga tanilgan psixolingvist olimlar B.F.Skinner, Noam Xomskiy, Jan Piaget kabi olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lib hali hanuz olimlarning fikrini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Garnham A, Garrod S., and. Sanord A: "Observation on the past and future of Psycholinguistics"; Handbook of Psycholinguistics.ELSEVIER 2006.P: 5-13
2. Levelt, W. J. M. (Willem J. M.), 1938- (2013). Psixolingvistika tarixi: Xomskiygacha bo'lgan davr. Oksford: Oksford universiteti matbuoti. ISBN 9780191627200. OCLC 824525524
3. Levelt W. J. M. "Psycholinguistics" Max-Planck-Institut für Psycholinguistik, Nijmegen, The Netherlands, P: 39-54.
4. Osgood Ch. E. Psycholinguistics; a survey of theory and research problems, Bloomington, Indiana University Press, 1965y, P-307 / [urn:oclc:record:1151076890](https://www.worldcat.org/oclc/record/1151076890) [urn:lcp:psycholinguistic0000osgo:lcpdf:52809b0a-ec76-49b5-b8cd-3ad9ee911c72](https://www.worldcat.org/urn:lcp:psycholinguistic0000osgo:lcpdf:52809b0a-ec76-49b5-b8cd-3ad9ee911c72)
5. Osgood, Ch. E. Psycholinguistics; a survey of theory and research problems, journal of abnormal psychology 1954y, P 1-103
6. Robak A. A., "Destiny and motivation in language. Studies in psycholingvistics and glossodynamecs".Sci-art publishersCambridge press,1954y. P. 31, 117-135

7. Chomskiy N. A., "A Review of B. F. Skinner's Verbal Behavior", 1959y. P:49-62//Google Scholar/

8. Белянин В.П. "Психолингвистика": Учебник / В.П. Белянин. — М.: Флинта: Московский психолого-социальный 2 институт, 2003. — 232 с. ISBN 5-89349-371-0 (Флинта) ISBN 5-89502-421-1 (МПЦИ)

9. Вильгельм В. "Проблемы психологии народов" Питер 2001г. Стр: 54 Электронная библиотека RoyalLib.Com, 2010-2023.

UO'K 81'373

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ORNITONIMLAR PARADIGMASI HAQIDA

Sh.Iskandarova, prof., f.f.d., Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

N.Maxmudova, PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi ornitonimlar, ularning o'rganilishi, lug'aviy tarkibi, xususan, hasharot, hayvon, rang, miqdor nomlari, partonim komponentli ornitonimlarning o'ziga xos xususiyatlarini leksik-semantik asosda tadqiq etish haqida fikr yuritiladi. Har ikki tildagi ornitonimlarning umumiy va o'ziga xos jihatlari qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: paradigma, ornitonim, leksik-semantik, hashorat nomi komponentli, hayvon nomi komponentli, rang komponentli, miqdor komponentli, partonim komponentli, integral belgi, differensial belgi, denominatsiya.

Annotatsiya. В статье рассматриваются орнитонимы в узбекском и английском языках, их изучение, лексический состав, в частности, названия насекомых, животных, цветов, величин, исследование особенностей орнитонимов с партонимическим компонентом на лексико-семантической основе. Сравниваются общие и специфические аспекты орнитонимов в обоих языках.

Ключевые слова: парадигма, орнитоним, лексико-семантический, компонент названия насекомого, компонент названия животного, цветовой компонент, количественный компонент, партонимный компонент, интегральный знак, дифференциальный знак, деноминация.

Abstract. The article discusses ornitonyms in the Uzbek and English languages, their study, lexical composition, in particular, the names of insects, animals, flowers, quantities, and a study of the features of ornitonyms with a partonymic component on a lexical-semantic basis. The general and specific aspects of ornitonyms in both languages are compared.

Key words: paradigm, ornitonym, lexical-semantic component, insect name component, animal name component, color component, quantitative component, partonymous component, integral sign, differential sign, denomination.

Jahon tilshunosligida ornitonimlar qushlarning tashqi belgilari, yashash tarzi, oziqlanish usuli kabi jihatlarga ko'ra bir necha turlarga tasnif qilinadi. Lug'atlarda keltirilgan ornitonimlarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir: yashash joyiga ko'ra: a) suvda; b) quruqlikda; s) cho'lda [1;2;3;4;5;6;7;12;13]. O'zbek va ingliz tillaridagi ornitonimlarning leksik paradigmasi o'ziga xosdir. Jumladan, ornitonimlarning komponentlaridan biri jonivor, hasharot nomlari bilan ifodalanganlari miqdor jihatidan ancha ko'pchilikni tashkil etadi. Ularni o'z navbatida quyidagicha guruhlash mumkin:

1) hasharot nomini bildirgan so'zlarning ornitonim komponenti sifatida qo'llanilishi: *hasharot+xo'r*, *pashsha+xo'r*, *uzundumli pashsha+xo'r*, *pashsha+qoqar*; *fly+catcher*, *Abyssinian wax+bill*, *Long-tailed +silky flycatcher*, *long-billed speder+hunter*, *lunalated ant+bird* kabilar;

2) hayvon nomini bildirgan so'zlar(zoonimlar)ning ornitonim komponenti sifatida qo'llanilishi: *tuya+qush*, *Avstraliya tuya+qushi*, *Afrika tuya+qushi*, *ilon+bo'yin*, *ilon+burgut*, *tuya+qaldirg'och*, *baliq+chi*, *baliq+chi ukki*, *baqa og'izli tentak qush*, *maymun+qush*; *Abyssinian cat+bird*, *Adamawa turtle+dove*, *African fish+eagle*, kabilar.

Turli tillarda qo'llaniladigan nomlash tizimlari o'rtasida ma'lum darajada o'xshashlik mavjud; ornitonimlar qushlarning tabiiy biologik xususiyatlari bilan bog'liq ma'lumotlarni yetkazish bilan izohlanadi. Denominatsiya tamoyillari va xususiyatlarini o'rganish lingvistik tahlilga aylantirilishi